

TEMUR MALIKNING JASORATI HAQIDA

*Aralov Jahongir Ne'matulla o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mo'g'ullarga qarshi mardonavor jangler olib borgan, Xorazmshohlar davlatining qo'mondonlaridan biri hisoblangan Temur Malikning faoliyati janglari, undagi oqil tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jand hokimi, sulton Jaloliddin, "Temur Malik"romani, Xo'jand himoyasi, Juvayniy, Jo'ji, Yangikent.

Temur Malik XII asr oxiri-XIII asrning birinchi yarmida Xorazmshoh Muhammad hukmronligi davrida Xo'jand hokimi, Jaloliddin Manguberdining yaqin safdoshi, mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash olib borgan sarkarda, xalq qahramoni hisoblanadi.

1219-yilning dekabrda mo'g'ullarning besh ming kishilik qo'shindan iborat bir guruhi Oloqno'yon, Suketu Cherbi va Tug'ay kabi sarkardalari boshchiligidida Sayhun bo'yida joylashgan Banokat va Xo'jand shaharlari ustiga yurish boshlaydi. Qang'li qabilalaridan tashkil topgan qo'shin bilan Banokat amiri Elatxumalik mo'g'ullarga qarshi to'rt kun jang qilgach, dushman shaharni egallab yondiradi, aholisini qirg'in qiladi va boyliklarini talaydi. Navbat Xo'jandga kelgandi. Asli nasabi turkiy bo'lgan Xo'jand shahri hokimi, jasur sarkarda Temur Malik boshchiligidida xo'jandliklarning mo'g'ullar bilan arslonlardek jang qilib, o'z ona shaharlarini himoya qilishlari tillarda doston va dushman uchun kutilmagan hodisa bo'ldi [Azamat Ziyo. 20-21 b.].

Tarixchi Alouddin Muhammad Juvayniy Temur Malikning ko'rsatgan qahramonligiga quyidagicha baho bergen edi: "Temur Malik shunday jasoratlari sarkarda ediki, agar paxlavon Rustam tirik bo'lganida uning otiga jilovdorlikka yarardi, xolos"[Джувайний Алоудин Мухаммед. с.12].

Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, Xo'jandni qamal qilishda 20 ming mo'g'ul askarlaridan tashqari, 50 ming nafar asir ham qatnashgan. Kuchlar nisbatining teng bo'limganligini hisobga olib va tinch aholini qirg'in bo'lishdan saqlab qolish maqsadlarini ko'zlab Temur Malik o'zining 1000 ta saralangan jangchi suvoriylari bilan jang qilib, mo'g'ullar safini yorib o'tadi va Sayhun daryosi o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Mo'g'ullarning kamon o'qlari va palaxmon toshlari uzoqqa yetib bora olmas edi. Mo'g'ullarning daryoga toshlarni tashlab vatanparvarlar tomon o'tishga qaror qiladilar va askarlami 3 farsax (bir farsax 6-8 km) uzoqlikdan toshlarni olib kelib daryoga tashlatib, to'g'on (damba)lar hosil qilmoqchi bo'ladilar. Temur Malik esa o'zining jasur yigitlari bilan tunda qayiqlarda suzib kelib, kuni bilan hosil qilingan to'g'on (damba)larni buzib ketardi [Shamsutdinov R... 309-310 b.].

Temur Malikning buyrug‘iga asosan 12 ta maxsus qayiq qurilgan. Dushman otgan o‘qlar qayiqlami teshib o‘tmasligi, olovli o‘qlar ularni yondirib yubormasligi chorasi sifatida qayiqlarning ustlari namatlar bilan qoplanadi, ustidan esa sirkali loy chaplanadi. Bunday kemalarda Temur Malik bemalol, qo‘rmasdan daryo sohillari tomon suzib borib, mo‘g‘ullarga qiron keltirar edi. Ammo kuchli dushman bilan bunday usulda uzoq vaqt jang qilishning iloji yo‘q edi. Shuning uchun Temur Malik 70 ta kema- qayiq qurdirib, daryoning quyi qismi orqali mash’alalar yoqib suzib borib, Xorazm (Orol) dengizi va Jayhun orqali Urganjga yetib olishga qaror qiladi. Daryoning har ikki qirg‘og‘idan esa mo‘g‘ullarning otliq suvoriylari Temur Malik kuchlari ustiga tinimsiz kamon o‘qlari yog‘dirar edilar. Qattiq jang, olovli mash’alalar bilan Temur Malik sarbozlari Jand tomon dadil suzib ketadilar[www.uz.wikipedia.org. internet sayti].

Barchinlig’kent va Jand yaqinida daryoning har ikkala sohili bo‘ylab sarhang Ulus Idi boshliq dushman kuchlari daryo ustiga zanjir tortib, mustahkam to‘sinquradilar. Ammo Temur Malik bu to‘sinqni buzib o‘tib, Jand shahrida qirg‘oqqa chiqadi. Qirg‘oqda Temur Malik bahodirlari bilan mo‘g‘ullar o‘rtasida mislsiz va shiddatli jang bo‘ladi. Bu jangda Temur Malik o‘z qo‘shini va safdoshlaridan deyarli batamom ayrıldi. Faqat kichik bir guruh yigitlar bilan qolgan Xo‘jand arsloni mo‘g‘ullaming butun boshli qo‘shiniga qarshi jang maydonida ot suradi[Shamsutdinov R... 310-311 b.].

Juvayniyning yozishicha: “Orqadan ta’qib etib kelayotgan dushmanni yo’l-yo‘lakay chopib, kamondan o‘qqa tutib parokanda etdi, mo‘g‘ul sardorlaridan birining ko‘zini ko‘r qildi. Yana ikki o‘q-yoyim bor, ikkovingga ham yetadi. Yaxshisi orqaga qaytinglar!” deb xitob qildi Temur Malik [Джувайний Алоудин Мухаммед. с.127.]. Vahimaga tushgan mo‘g‘ullar otlari jilovini orqaga tortib qaytib ketdilar. Ana shu tariqa Temur Malik qattiq mashaqqatlar va qahramonliklar evaziga Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganjga yetib boradi va Jaloliddin Manguberdi kuchlariga qo‘shiladi. U Xorazm bahodiri bilan mo‘g‘ullarga qarshi olib borilgan juda ko‘p janglarda qatnashadi. Jo‘jiga qarshi muvaffaqiyatli va zafarli yurishlami amalga oshiradi va hatto undan Sirdaryoning quyi oqimidagi Yangikent shahrini qaytarib ham oladi.

Ushbu voqeа xususida aytadigan bo‘lsak, 1220-yilning yozida Xorazmga yetib keladi. Askar to‘plab Jo‘jixon qo‘shiniga kuchli zarba beradi. Kasba (Yangikent) shahrini mo‘g‘ullardan ozod qiladi, ammo sultanatda yuzaga kelgan mushkul siyosiy vaziyat tufayli Xorazmni tark etadi. Temur Malik 1221-1232-yillar davomida Sulton Jaloliddin bilan birgalikda mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib boradi. Jaloliddin halokatidan keyin o‘z yurtiga qaytadi. Ma’lum vaqtan so‘ng Temur Malik mo‘g‘ullar tomonidan qo‘lga olinadi va qatl qilinadi[www.uz.wikipedia.org. internet sayti].

Temur Malik jasorati haqida 1986-yilda Mirmuhsinning “Temur Malik” romanı, 1963-yilda Ashrafiyning “Temur Malik” nomli simfonik poemalari yaratilgan va 1970-yil Navoiyda uning “Temur Malik” baleti qo‘yilgan [Ravshanov P. 20 b.].

Xulosa qiladigan bo’lsak, O’zbek davlatchiligi tarixida muhim rol o’ynagan Xorazmshohlar davlati faoliyati o’z o’rniga ega bo’lgan Temur Malik xuddi Jaloliddin, Amir Temur kabi mashhur sarkardalarga xos matonat va jasorat timsolini o’zida aks ettira olgan. Bugungi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Temur Malik singari buyuk shaxslarning jasoratlarini ularga o’rgatish va shu asnoda tarbiyalash hozirgi zamonning, asosiy qilinishi kerak bo’lgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. 2000.
2. Джувайний Алоудин Мухаммед. Татаро-монголы в Азии и в Европе. Москва. 1977.
3. Ravshavov P. Adabiy sahifalar. Toshkent. 1985.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. Toshkent. 2010.
5. www.uz.wikipedia.org. internet sayti.